



ILMIY TADQIQOTLARDA HUJJAT TAHLILINING O'RNI

Islomova Odinaxon Abdusalom qizi*Farg'ona davlat universiteti Sotsiologiya yo'nalishi**1-bosqich magistranti**Tel: +998930514103*

Annotatsiya Ushbu maqolada ilmiy tadqiqotlar, ularning o'ziga xos xususiyatlari, shu bilan birgalikda mazkur tadqiqotlarda hujjatlarni tahlil qilish metodidan foydalanishning afzalliklari yoritilgan. Hujjatlardan foydalanish ilmiy tadqiqot qiymatini oshiradi, unda obyektivlikni ta'minlaydi. Tadqiqotning ilmiyligi hujjatlar mohiyatiga qarab belgilanadi.

Kalit so'zlar Ilmiy tadqiqot, hujjat, hujjatlarni tahlil qilish, metod, muammo, tizimli tahlil.

Annotation This article highlights scientific research, its specific features, as well as the advantages of using the document analysis method in such studies. The use of documents increases the scientific value of the research and ensures objectivity. The scientific significance of the study is determined based on the nature of the documents.

Keywords Scientific research, document, document analysis, method, problem, systematic analysis.

Kirish.

Ilmiy tadqiqot — bu mavjud bilimlarga asoslangan holda, yangi bilim va haqiqatlarni aniqlash, mavjud muammolarga ilmiy yechim topish maqsadida olib boriladigan tizimli, rejalashtirilgan va mantiqiy izchil faoliyatdir. Ilmiy tadqiqotning asosiy xususiyatlari:

Maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi – aniqlik, aniqlanmagan hodisa yoki muammoni tushunish yoki yechimini topish uchun qilinadi.

Dalillarga asoslanadi – taxmin yoki shaxsiy fikr emas, balki faktlar, tajribalar va kuzatuvlar orqali asoslanadi.

Tartib bilan olib boriladi – mavzuni tanlash, muammoni aniqlash, maqsad va vazifalarni belgilash, metod tanlash, tahlil qilish va xulosa chiqarish bosqichlarini o'z ichiga oladi.


Yangilik kiritadi – mavjud bilimlarni boyitadi, yangi g'oyalar yoki qarashlar taklif etadi.

Ilmiy tadqiqotlar ham sotsiologik hujjatlar kabi turlarga bo'linadi. Ilmiy tadqiqotning turlari:

1. Nazariy tadqiqot – ilmiy tushunchalarni, nazariyalarni ishlab chiqish yoki chuqurlashtirish.

2. Amaliy tadqiqot – real hayotdagi muammolarga amaliy yechim topishga qaratilgan.

3. Tajriba asosidagi tadqiqot – laboratoriya yoki maydon sharoitida sinovlar o'tkazish orqali yangi ma'lumot olish.



4-jadval. Ilmiy tadqiqot turlari.

Ilmiy tadqiqot har qanday fan sohasining, jumladan, sotsiologiyaning ham poydevori hisoblanadi. Chunki u orqali jamiyatdagi muammolar chuqur o'rganiladi va asosli takliflar ishlab chiqiladi.

Ilmiy tadqiqotlarda hujjatlar tahlili muhim metodlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, sotsiologiya kabi ijtimoiy fanlarda bu usul tadqiqotning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Hujjatlar tahlili mavjud yozma, bosma yoki raqamli manbalarni o'rganib, ularning mazmunidan ilmiy xulosalar chiqarishga asoslanadi. Bu usul orqali tadqiqotchi mavzu bo'yicha dastlabki bilimlarni to'playdi va ilmiy asoslangan kontekstni shakllantiradi. Tadqiqotda hujjatlar tahlili boshlang'ich ma'lumot manbai bo'lib xizmat qiladi. Masalan, rasmiy statistik ma'lumotlar, hukumat qarorlari, ilgari o'tkazilgan so'rovlar natijalari yoki OAV xabarlari tadqiqot uchun dastlabki ma'lumotlarni beradi. Shu bilan birga, hujjatlar orqali tadqiqot mavzusiga tarixiy va kontekstual yondashuv shakllanadi. Ijtimoiy hodisalarning rivojlanish yo'nalishi, sabab-oqibatlar va ularning tarixiy ildizlari aynan hujjatlar orqali ochib beriladi.

Hujjatlar tahlili solishtirma tahlil imkonini ham yaratadi. Turli davrlar, hududlar yoki tashkilotlar faoliyatini aks ettiruvchi hujjatlar o'rganilib, ularning o'zaro o'xshash va farqli jihatlari aniqlanadi. Bu esa tadqiqotga ob'ektiv va chuqur yondashishni ta'minlaydi. Shu bilan birga, hujjatlar asosida bildirilgan fikrlar aniq va ishonchli dalil bo'lib xizmat qiladi, bu esa ilmiy ishning ishonchliligini oshiradi. Sotsiologiyada hujjatlar tahlilining ijtimoiy ahamiyati katta. U jamiyatdagi mavjud muammolarni aniqlash, tahlil qilish va ular bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish imkonini beradi. Masalan, aholining bandlik darajasi, yoshlar orasidagi ijtimoiy muammolar, gender tengligi yoki ijtimoiy tengsizlikka oid statistik ma'lumotlar va rasmiy hisobotlar tahlili orqali dolzarb masalalar yuzasidan xulosa chiqariladi. Bundan tashqari, hujjatlar tahlili xalqaro tajribani o'rganish va boshqa davlatlar bilan solishtirish imkonini ham beradi.

Xulosa.



Xulosa qilib aytganda, hujjatlar tahlili sotsiologik tadqiqotlarda asosiy metodlardan biri sifatida tadqiqotning chuqurligi, asoslanganligi va ijtimoiy ahamiyatini ta'minlaydi. Bu usul orqali jamiyat hayotini ob'ektiv va tizimli tahlil qilish imkoniyati vujudga keladi. Qanday hujjatlardan foydalanishni tadqiqotchining o'zi hal qiladi. Ammo bu ilmiy maqsadga muvofiq bo'lishi, muammoni o'rganishga uni ob'ektiv tadqiq etishga xizmat qilishi lozim. Hujjatlardan foydalanish ilmiy tadqiqot qiymatini oshiradi, unda ob'ektivlikni ta'minlaydi. To'g'ri tadqiqotchi hujjatning mavjudligini qayd etish bilan chegaralanmaydi, u matnlarning mohiyatini tahlil qiladi va ilmiy maqsadga muvofiq baho beradi. Umuman olganda, barcha sohalar uchun hujjatlarni o'rganish va tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sotsiologiya: darslik/X.B.Saitxodjayev; Mas'ul muharrir f.f.d, prof Sh.Mamadaliyev; t.f.d., prof. K.Normatov. – T.:O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2017-y. 241-b
2. Entoni Giddens. Sotsiologiya. T.2002.773-b
3. Sotsiologiya(o'quv qo'llanma). Sh.A.Ahadov. Samarqand 2007-y 189-190-b
4. Sotsiologiya asoslari. (o'quv qo'llanma) Yo.Toirov, A.Lyagay, K.Ro'zimatxoda. Farg'ona-1998. 169-b
5. “Deviant xulq-atvor sotsiologiyasi” fanidan o'quv uslubiy majmua. Farg'ona 2020.
6. “Sotsiologiya” fanidan ma'ruzalar matni. Xadjiyev Umrbek Shonazarovich. Urganch-2015.109-b
7. Методическое пособие социолога-практика (словарь-справочник)/Под.ред. Д.А.Шевченко, А.И.Кравченко.-М.,2001.-С.86.
8. Яковлева Н.Ф.Социологическое исследование [Электронный ресурс] .Учеб. пос.-2-е изд.-М.:ФЛИНТА,2014.-С.209-211.
9. M.Qirg'izboyev. Sotsiologiya: oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent, “Navro'z” nashriyoti, 2017-y 407-4011-betlar
10. https://api.scienceweb.uz/storage/publication_files/6911/18955/65ab9be9a513e_hujjatlarni%20tahlil%20qilish%20maqola.pdf
11. O.Abduamatova. Hujjatlarni tahlil qilish metodi. Международный научный журнал “ Научный импульс” No5(100) часть 2 Декабрь, 2022 263-268-betlar